



2023- yil yanvar-oktabr oyi uchun
dastlabki ma'lumot



JIZZAX VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(72) 221-51-26



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-oktabr oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1201004,2 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **637001,9 ming AQSH** dollariga yoki **112,9 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **1201004,2** +112,9 %
(2022- y.: **564002,4**)



Saldo
2023- y.: **- 909519,2**
(2022 y.: - 241690,1)



Ekspart

2023- y.: **145742,5** -9,6 %
(2022- y.: **161156,1**)



Tovarlar: **145297,1**



Xizmatlar: **445,4**



Import

2023- y.: **1055261,7** +162,0 %
(2022- y.: **402846,3**)



Tovarlar: **1055261,7**



Xizmatlar: **0,0**











Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zahiralarga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.




TSAda eksport hajmi **145742,5** ming AQSH dollariga (**9,6 %** ga kamaydi) va import hajmi **1055261,4** ming AQSH dollariga (**162,0 %** ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-909519,2** ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



JIZZAX VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)

<p>XXR</p> <p>TSA – 595253,5</p> <p>Eksport: 27865,8 Import: 567387,7</p> <p> 49,6 %</p>	<p>Koreya Respublikasi</p> <p>TSA – 254345,2</p> <p>Eksport: 165,2 Import: 254180,0</p> <p> 21,2 %</p>	<p>Chexiya</p> <p>TSA – 87389,3</p> <p>Eksport: 99,2 Import: 87290,1</p> <p> 7,3 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 64022,2</p> <p>Eksport: 41665,7 Import: 22356,5</p> <p> 5,3 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 53319,5</p> <p>Eksport: 29508,4 Import: 23811,1</p> <p> 4,4 %</p>
<p>Litva</p> <p>TSA – 32507,2</p> <p>Eksport: 502,1 Import: 32005,1</p> <p> 2,7 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 23961,5</p> <p>Eksport: 665,6 Import: 23295,9</p> <p> 2,0 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 20712,9</p> <p>Eksport: 10049,6 Import: 10663,3</p> <p> 1,7 %</p>	<p>Eron</p> <p>TSA – 10058,1</p> <p>Eksport: 6489,8 Import: 3568,3</p> <p> 0,8 %</p>	<p>Qirg‘iziston</p> <p>TSA – 7733,5</p> <p>Eksport: 6677,5 Import: 1056,0</p> <p> 0,6 %</p>

Jizzax viloyati jahonning **70** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (**49,6 %**), Koreya Respublikasida (**21,2 %**), Chexiya (**7,3 %**), Rossiyada (**5,3 %**), Turkiyada (**4,4 %**), Litvada (**2,7 %**), Germaniyada (**2,0 %**) va Qozog'istonda (**1,7 %**) qayd etilgan.

 Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Belarus, Moldova va Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti.

TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)



Rossiya – 64022,2



Qozog 'iston – 20712,9



Qirg'iz Respublikasi – 7733,5






















Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Koreya Respublikasi, XXR va Turkiya, Litva, Rossiya va Qozog'iston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



JIZZAX VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
XXR	106602,1	103354,2	595253,5
 <i>Eksport</i>	46355,6	19911,2	27865,8
<i>Import</i>	60246,5	83443,0	567387,7
Koreya Respublikasi	67250,6	132842,1	254345,2
 <i>Eksport</i>	2,1	109,7	165,2
<i>Import</i>	67248,5	132732,4	254180,0
Chexiya	546,6	1358,7	87389,3
 <i>Eksport</i>	0,3	12,5	99,2
<i>Import</i>	546,3	1346,2	87290,1
Rossiya	57052,8	91812,9	64022,2
 <i>Eksport</i>	36218,6	44801,9	41665,7
<i>Import</i>	20834,2	47011,0	22356,5
Turkiya	61481,2	70520,7	53319,5
 <i>Eksport</i>	34333,8	38728,0	29508,4
<i>Import</i>	27147,4	31792,7	23811,1
Litva	11347,7	56054,4	32507,2
 <i>Eksport</i>	210,4	162,5	502,1
<i>Import</i>	11137,3	55891,9	32005,1
Germaniya	7374,6	8711,1	23961,5
 <i>Eksport</i>	332,8	4569,7	665,6
<i>Import</i>	7041,8	4141,4	23295,9
Qozog'iston	23675,4	32276,8	20712,9
 <i>Eksport</i>	12467,8	18038,9	10049,6
<i>Import</i>	11207,6	14237,9	10663,3
Eron	4229,6	4109,8	10058,1
 <i>Eksport</i>	1075,5	1742,0	6489,8
<i>Import</i>	3154,1	2367,8	3568,3
Qirg'iz Respublikasi	4898,8	10838,0	7733,5
 <i>Eksport</i>	3931,3	4693,1	6677,5
<i>Import</i>	967,5	6144,9	1056,0



	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Italiya	7056,6	5542,5	6293,4
	<i>Eksport</i>	4879,8	4147,7	3711,3
	<i>Import</i>	2176,8	1394,8	2582,1
	Niderlandiya	61,5	5,6	5987,0
	<i>Eksport</i>	-	-	8,8
	<i>Import</i>	61,5	5,6	5978,2
	Afg'oniston	4523,7	6609,7	4851,8
	<i>Eksport</i>	4427,3	5926,7	4433,6
	<i>Import</i>	96,4	683,0	418,2
	Hindiston	2169,1	4863,4	4319,7
	<i>Eksport</i>	247,8	1834,0	975,2
	<i>Import</i>	1921,3	3029,4	3344,5
	Tojikiston	6034,8	4900,4	3722,0
	<i>Eksport</i>	3361,0	3303,9	3694,7
	<i>Import</i>	2673,8	1596,5	27,3
	Turkmaniston	619,1	895,9	2341,0
	<i>Eksport</i>	320,8	473,6	365,1
	<i>Import</i>	298,3	422,3	1975,9
	Belarus	1859,1	1795,7	2189,8
	<i>Eksport</i>	247,8	673,7	630,0
	<i>Import</i>	1611,3	1122,0	1559,8
	Shveysariya	288,4	1261,9	2052,8
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	288,4	1261,9	2052,8
	Belgiya	1549,8	81,1	1990,3
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	1549,8	81,1	1990,3
	Daniya	2,4	9,3	1642,1
	<i>Eksport</i>	--	-	-
	<i>Import</i>	2,4	9,3	1642,1




JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-oktabr)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Jizzax viloyati	1201004	2,1 m.	100,0
Jizzax sh.	474100,2	2,7 m.	39,5
hududlar:			
Arnasoy	8550,7	59,5	0,7
Baxmal	8631,1	154,0	0,7
G'allaorol	400430,7	2,7 m.	33,3
Sharof Rashidov	14682,8	81,7	1,2
Do'stlik	15575,2	101,2	1,3
Zomin	19433,9	64,1	1,6
Zarbdor	16986,6	65,6	1,4
Zafarobod	5444,4	70,8	0,5
Mirzacho'l	1721,1	28,7	0,1
Paxtakor	15767,0	89,9	1,3
Forish	217989,2	2,3 m.	18,2
Yangiobod	1665,5	42,4	0,1

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari




Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax shahar **39,5 %** ulush bilan **474100,2** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangiobod **0,1 %** ulush bilan **1665,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Jizzax viloyati viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-oktabr oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **8,5** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **17,7** % ga kamayib, so'ngi uch yilda eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-oktabr oyida 2022- yilning mos davriga nisbatan **17,7** % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **91,5** % ni tashkil etdi.

Jizzax viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra, **102095,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **64138,2** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **37956,9** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



JIZZAX VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)

Rossiya

TSA – 64022,2
Eksport – 41665,7
Import – 22356,5



Qozog'iston

TSA – 20712,9
Eksport – 10049,6
Import – 10663,3



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 7733,5
Eksport – 6677,5
Import – 1056,0



Tojikiston

TSA – 3722,0
Eksport – 3694,7
Import – 27,3



Turkmaniston

TSA – 2341,0
Eksport – 365,1
Import – 1975,9



Belarus

TSA – 2189,8
Eksport – 630,0
Import – 1559,8



Ukraina

TSA – 561,1
Eksport – 395,1
Import – 166,0



Ozərbayjon

TSA – 487,1
Eksport – 361,8
Import – 125,3



Moldova

TSA – 270,6
Eksport – 243,8
Import – 26,8



Armaniston


TSA – 55,0
Eksport – 55,0
Import – 0,0



Jizzax viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**62,7 %**), Qozog'iston (**20,3 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**7,6 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

JIZZAX VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-oktabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



Jizzax viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **94713,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **59077,8** ming AQSH dollari, import hajmi esa **35635,6** ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




JIZZAX VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **143** taga yetdi va ular tomonidan **145742,5** ming AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **9,6 %** ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-oktabr, ulushi % da)



Jizzax viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-oktabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	161156,2	145742,6	100,7	90,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	67,7	17,4	13,4 m.	25,7	0,0	0,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	2351,7	2425,9	114,1	103,2	1,5	1,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	52,9	-	-	-	-	-
Ichimliklar va tamaki	5,6	47,4	0,0	8,5 m.	0,0	0,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	38744,4	21260,4	148,4	54,9	24,0	14,6
Sanoat tovarlari	85341,5	11414,3	80,9	13,4	53,0	7,8
Turli xil tayyor buyumlar	17236,0	17161,2	117,0	99,6	10,7	11,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4981,7	6386,9	121,9	128,2	3,1	4,4
Xizmatlar	470,3	445,4	129,7	94,7	0,3	0,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	11904,3	11650,5	165,0	97,9	7,4	8,0
Boshqa tovarlar	-	74933,2	-	-	-	51,4

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,7 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**7,8 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**14,6 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**11,8 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-oktabr)

XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	19251,1	61,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	805,2	12,2
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,0	0,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	861,0	2,3 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	40,8	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	6,6	117,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1019,8	41,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	226,4	5,8 m.
Qog'oz massasi va makulatura	3705,1	3,0 m.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	454,9	2,3 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	17,4	25,7
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Bo'yoqlar va taninlar	5117,1	137,8
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	0,0	0,0
O'g'itlar	4375,1	77,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1505,6	107,9


XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	5058,3	6,7
Kauchuk mahsulotlar	0,0	0,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar	6127,6	65,3
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	6127,6	65,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	2366,7	115,2
Avtomobillar (shu jumladan havo transporti vositalari)	35,0	0,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	24,1	45,0
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalari	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	15697,9	93,2
Har xil tayyor buyumlar	60,8	164,3
Oyoq kiyimlar	0,0	0,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1401,9	9,0 m.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023-yilning yanvar-oktabr oyida MDH mamlakatlariga **64138,2** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **44,0** % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-oktabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-oktabr oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Turkiya, XXR, Italiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **86,4** % ni tashkil etdi.



RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-oktabr, % da)





JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*



Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	44801,9	41665,7	123,7	93,0	1	1
Turkiya	38728,0	29508,4	112,8	76,2	2	2
XXR	19911,2	27865,8	43,0	139,9	3	3
Qozog'iston	18038,9	10049,6	144,7	55,7	4	4
Qirg'iz Respublikasi	4693,1	6677,5	119,4	142,3	6	5
Eron	1742,0	6489,8	162,0	3,7 m.	12	6
Afg'oniston	5926,7	4433,6	133,9	74,8	5	7
Italiya	4147,7	3711,3	85,0	89,5	8	8
Tojikiston	3303,9	3694,7	98,3	111,8	10	9
Pokiston	1643,3	2308,4	31,1	140,5	13	10
Polsha	3505,6	1191,4	2,4 m.	34,0	9	11
Hindiston	1834,0	975,2	7,4 m.	53,2	11	12
Germaniya	4569,7	665,6	13,7 m.	14,6	7	13
Belarus	673,7	630,0	2,7 m.	93,5	17	14
Litva	433,4	577,6	109,9	133,3	27	15
BAA	162,5	502,1	77,2	3,1 m.	26	16
Ukraina	173,2	395,1	52,4	2,3 m.	22	17
Braziliya	397,4	395,0	29,5	99,4	42	18
Turkmaniston	0,3	389,9	18,1	-	20	19
Chili	473,6	365,1	147,6	77,1	14	20






JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-oktabr)*

	Hajm ming AQSH dollar	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Jizzax viloyati	145742,6	90,4	100,0
Jizzax sh.	67690,3	96,1	46,4
hududlar:			
Arnasoy	4354,6	130,4	3,0
Baxmal	4125,6	174,3	2,8
G'allaorol	7210,7	85,2	4,9
Sharof Rashidov	4578,6	57,5	3,1
Do'stlik	14468,3	145,9	9,9
Zomin	7104,6	118,9	4,9
Zarbdor	13546,2	67,9	9,3
Zafarobod	1361,3	107,4	0,9
Mirzacho'l	741,0	14,3	0,5
Paxtakor	10744,6	76,0	7,4
Forish	8443,2	94,8	5,8
Yangiobod	1347,7	42,1	0,9

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax sh. **46,4 %** bilan **67690,3** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Mirzacho'l **0,5 %** bilan **741,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Jizzax viloyati viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



JIZZAX VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-oktabr oyida import hajmi **1055261,7** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **162,0** % ga oshdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**63,0** %), sanoat tovarlari (**2,0** %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**2,1** %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-oktabr oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **642415,5** ming AQSH dollariga ko'paydi va **1055261,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	402846,2	1055261,7	170,5	2,6 m.	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	168,9	3293,2	64,1	19,5 m.	-	0,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	284968,0	697719,3	187,2	2,4 m.	70,7	66,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4687,8	11235,4	166,2	2,4 m.	1,2	1,1
Ichimliklar va tamaki	-	5,0	-	-	-	-
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	39919,4	13793,5	2,3 m.	34,6	9,9	1,3
Sanoat tovarlari	32232,0	20425,0	121,7	63,4	8,0	1,9
Turli xil tayyor buyumlar	6546,6	12502,3	62,8	191,0	1,6	1,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5176,9	4399,8	153,9	85,0	1,3	0,4
Xizmatlar	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	29146,8	21083,3	123,0	72,3	7,2	2,0
Boshqa tovarlar	-	270805,1	-	-	-	25,7



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-oktabr)

XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	8649,6	39,4
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	7,8	0,0
Sabzavotlar va mevalar	1067,6	13,6
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	35,0	104,1
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	1,3	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Metall rudalari va metall parchalari	133,0	3,2 m.
Probka va yog'och-taxtalar	375,1	56,6
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	2386,6	3,9 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	7619,7	11,8 m.
Ko'mir, koks va briketlar	3615,7	89,5
Gaz, tabiiy va sun'iy	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	3293,2	19,5 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2284,3	26,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	9235,9	111,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2102,8	62,3
Noorganik kimyo moddalari	418,9	31,5


XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	4005,8	41,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1894,5	81,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	10121,1	71,4
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	421,8	108,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Boshqa transport uskunalari	504905,5	0,0
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	27760,5	27,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	154876,6	9,1 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	10176,7	134,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3330,1	126,2
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	1315,1	70,6
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	5693,9	3,2 m.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	355,9	5,2 m.



2023- yil yanvar-oktabr natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlari import ulushi **3,6 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **51,2 %** ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-oktabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-oktabr oyida **290** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Litva, Turkiya, Qozog'iston va Rossiya) jami importning asosiy qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-oktabr, % da)





JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	83443,0	567387,7	138,5	6,8 m.	2	1
Koreya Respublikasi	132732,3	254180,0	197,4	191,5	1	2
Chexiya	1346,2	87290,1	2,5 m.	64,8 m.	16	3
Litva	55891,9	32005,1	5,0 m.	57,3	3	4
Turkiya	31792,7	23811,1	117,1	74,9	5	5
Germaniya	4141,4	23295,9	58,8	5,6 m.	8	6
Rossiya	47011,0	22356,5	2,3 m.	47,6	4	7
Qozog'iston	14237,9	10663,3	127,0	74,9	6	8
Niderlandiya	5,6	5978,2	9,1	1067,5 m.	52	9
Eron	2367,8	3568,3	75,1	150,7	11	10
Hindiston	3029,4	3344,5	157,7	110,4	10	11
Italiya	1394,8	2582,1	64,1	185,1	15	12
Shveytsariya	1261,9	2052,8	4,4 m.	162,7	17	13
Belgiya	81,1	1990,3	5,2	24,5 m.	39	14
Turkmaniston	422,3	1975,9	141,6	4,7 m.	24	15
Bangladesh	1037,5	1729,4	86,2	166,7	20	16
Daniya	9,3	1642,1	3,4 m.	176,3 m.	51	17
Belarus	1122,0	1559,8	69,6	139,0	18	18
Latviya	1710,0	1367,6	2,9 m.	80,0	13	19
Qirg'iziston	6144,9	1056,0	6,4 m.	17,2	7	20





JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI



(2023- yil yanvar-oktabr)

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Jizzax viloyati	1055261,7	2,6 m.	100,0
Jizzax sh.	406409,9	385,3	38,5
hududlar:			
Arnasoy	4196,1	38,0	0,4
Baxmal	4505,6	139,1	0,4
G'allaorol	393220,0	282,5	37,3
Sharof Rashidov	10104,2	100,9	1,0
Do'stlik	1106,9	20,2	0,1
Zomin	12329,3	50,6	1,2
Zarbdor	3440,5	57,9	0,3
Zafarobod	4083,0	63,6	0,4
Mirzacho'l	980,1	118,3	0,1
Paxtakor	5022,3	147,5	0,5
Forish	209546,0	241,6	19,9
Yangiobod	317,8	43,6	0,0

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax sh. **38,5** % bilan **406409,1** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangiobod **0,1** % bilan **317,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-oktabr oyida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi **697719,3** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **144,8 %** ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **66,1 %** ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-oktabr)




2023- yil yanvar-oktabr oyida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **412751,3** ming AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Jizzax viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR– **441258,3** ming AQSH dollari (**63,2 %**), Koreya Respublikasi – **95170,4** ming AQSH dollari (**13,6 %**) va Chexiya– **87158,7** ming AQSH dollari (**12,5 %**) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI




2023- yil yanvar-oktabr oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **20245,0** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **63,4** % ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **1,9** % ni tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Sanoat mahsulotlari importi asosan yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**10121,1** ming AQSH dollari), cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (**4005,8** ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**1894,5** ming AQSH dollari) va rangli metallar (**1043,5** ming AQSH dollari) boshqalardan tashkil topgan.